KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
OAK: 01-08/1819/6
www.herald.kokanduni.uz

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” VA FARIDUDDIN ATTORNING “MANTIQ UT-TAYR” DOSTONLARI: ISTIQLOL DAVRI TADQIQOTLARI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL

Saidova Rizvon Mustofo qizi,
Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
rizvonsaidova874@gmail.com
Orcid:0009-0005-1892-3342
Tel: (+99890) 539-15-91
DOI: https://doi.org/10.54613/1ba9sk23

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ
Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 43
KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Lison ut-tayr, Mantiq ut-tayr, Hudhud, Simurg‘, yetti vodiy, fano, tasavvuf, qiyosiy tahlil

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ
Maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” va Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonlari istiqlol davrida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotshunoslikdagi yangicha talqinlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikki asarning o‘zaro mushtarak jihatlari, g‘oyaviy-falsafiy asoslari, kompozitsion qurilishi hamda badiiy ifoda xususiyatlari adabiy an’ana va ijodiy o‘ziga xoslik munosabati doirasida yoritiladi. Xususan, qushlar timsoli, safar motivi, ramziy obrazlar tizimi va hikoyatlar vositasida insonning ma’naviy kamolotga intilishi, o‘zlikni anglash hamda haqiqatni izlash masalalarining badiiy ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Navoiy ijodiy tafakkurining Attor adabiy merosi bilan munosabati, Sharq mumtoz adabiyotidagi tasavvufiy qarashlarning poetik talqini va ijodiy qayta ishlanishi ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi. Istiqlol davri navoiyshunosligida shakllangan yondashuvlar asosida ikki dostonning mazmuniy va shakliy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlar aniqlashtirilib, Navoiy badiiy mahoratining o‘ziga xos qirralari ochib beriladi. Maqola qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan mazkur asarlar o‘rtasidagi ijodiy aloqalarni chuqurroq anglashga hamda ularning o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi ilmiy-estetik ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER
Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 43
KEYWORDS
Lison ut-tayr, Mantiq ut-tayr, Hudhud, Simurgh, seven valleys, fana, Sufism, comparative analysis

ANNOTATION
This article presents a comparative analysis of Alisher Navoi’s *Lison ut-tayr* and Fariduddin Attar’s *Mantiq ut-tayr* based on scholarly research and new interpretative approaches developed during the period of Uzbekistan’s independence. The study examines the ideological and philosophical foundations, compositional structures, and artistic characteristics of both epics in relation to the continuity of literary traditions and the distinctive features of individual creativity. Particular attention is given to the symbolic representation of birds, the journey motif, the system of allegorical images, and the role of embedded narratives in expressing the human pursuit of spiritual perfection, self-awareness, and the search for truth. The article also explores the relationship between Navoi’s creative thought and Attar’s literary heritage, assessing the poetic interpretation and creative transformation of Sufi ideas within the framework of classical Eastern literature. Drawing on approaches established in Navoi studies during the independence period, the analysis identifies the similarities and differences between the two works in terms of content and form, thereby highlighting distinctive aspects of Navoi’s artistic mastery. From the perspective of comparative literary studies, the article contributes to a deeper understanding of the creative connections between the two epics and clarifies their scholarly and aesthetic significance in the history of Uzbek classical literature.

Kirish

Alisher Navoiy va Fariduddin Attor ijodiy merosi Sharq mumtoz adabiyotida tasavvufiy-falsafiy tafakkurning badiiy ifodasi, ramziy obrazlar tizimi hamda insonning ma’naviy kamolot yo‘lini talqin etish jihatidan alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, Navoiyning “Lison ut-tayr” va Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonlari syujet-kompozitsion qurilishi, qushlar timsollari, yetti vodiy konsepsiyasi, Hudhud va Simurg‘ obrazlari, shuningdek, hikoyatlar tizimi bilan o‘zaro yaqinlik kasb etadi. Mazkur mushtaraklik har ikki asarning genezisi va poetik munosabatini aniqlash, ayni paytda Navoiyning Attor an’anasiga munosabatini oddiy taqlid yoki tarjima doirasidan farqlash masalasini kun tartibiga chiqaradi.

“Lison ut-tayr”ning “Mantiq ut-tayr” bilan munosabati uzoq vaqt davomida Sharq adabiyotidagi ijodiy ta’sir va an’ana masalasi doirasida o‘rganib kelindi. Biroq mazkur munosabatni faqat manba va ta’sir masalasi sifatida talqin qilish har ikki shoirning badiiy tafakkuridagi o‘ziga xosliklarni to‘la namoyon etmaydi. Chunki Navoiy Attorning asosiy poetik modelini qabul qilgan holda, uning tarkibiy qismlarini qayta ishlaydi, ayrim obrazlarning semantik doirasini kengaytiradi, hikoyatlar tizimini yangilaydi va tasavvufiy g‘oyalarni o‘zining estetik hamda falsafiy qarashlari asosida qayta talqin etadi. Shu jihatdan “Lison ut-tayr”ni “Mantiq ut-tayr”ning oddiy davomchisi yoki tarjimasi sifatida emas, balki ijodiy dialog asosida yuzaga kelgan mustaqil badiiy hodisa sifatida baholash zarur.

Qushlar haqidagi tasavvufiy qissalarning genezisi ham mazkur masalani kengroq adabiy-tarixiy kontekstda o‘rganishni talab etadi. Ibn Sinoning “Tayr qissasi”, Abu Homid G‘azzoliyning “Risolat ut-tayr”i singari manbalarda shakllangan qushlar timsoli keyinchalik Attor ijodida mukammal badiiy tizimga aylangan. Attor “Mantiq ut-

tayr”ida Hudhudni qushlarga yo‘l ko‘rsatuvchi murshid, Simurg‘ni esa ilohiy haqiqatni anglashning yuksak ramzi sifatida markazlashtiradi. Navoiy esa mazkur an’anani o‘zlashtirish bilan cheklanmay, Hudhud, Simurg‘, qushlar, vodiylar va hikoyatlar tizimiga o‘zining poetik-falsafiy munosabatini singdiradi. Natijada tashqi jihatdan mushtarak bo‘lgan syujet va obrazlar tizimi ikki dostonda turlicha semantik yuklama kasb etadi.

Ayniqsa, Hudhud va Simurg‘ obrazlarining qiyosiy talqini ikki doston o‘rtasidagi ijodiy farqni aniqlashda muhim mezon bo‘la oladi. Har ikki asarda Hudhud Sulaymon payg‘ambarning elchisi, donishmand va qushlarni Haq sari yetaklovchi yo‘lboshchi sifatida namoyon bo‘lsa-da, uning xarakteri, qushlar bilan munosabati va yetti vodiydagi funksiyasi bir xil emas. Xuddi shuningdek, Simurg‘ har ikki dostonda ilohiy haqiqat bilan bog‘liq ramz sifatida namoyon bo‘lsa-da, Navoiyning talqinida uning ma’no doirasi insonning o‘zligini anglash, komillikka erishish va ilohiy haqiqatni botiniy ravishda kashf etish g‘oyalari bilan yanada kengayadi. Shu sababli mazkur obrazlarni faqat umumiy tasavvufiy ramzlar sifatida emas, balki har ikki shoir poetik tafakkurining individual ifodasi sifatida qiyoslash muhimdir.

Adabiyitlar tahlili

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni va Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari o‘rtasidagi adabiy-estetik munosabatlarni o‘rganishda Z. U. Mamadalievaning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining “Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonidagi ramziy obrazlar tizimi” nomli dissertatsiyasida qushlar timsolining shakllanishi, ularning tasavvufiy mazmuni hamda Attor ijodi bilan mushtarak va farqli jihatlari tizimli tahlil qilingan. Muallif obrazlarni alohida badiiy birlik sifatida emas, balki dostonning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilovchi yaxlit ramziy tizim doirasida o‘rganadi. Ayniqsa, Hudhudning yo‘lboshchilik vazifasi, Simurg‘ning ilohiy haqiqat bilan aloqasi va qushlarning ma’naviy kamolot sari intilishi o‘zaro bog‘liq holda izohlanadi. Mazkur yondashuv Navoiyning Attor an’anasini ijodiy o‘zlashtirish tamoyillarini aniqlashga imkon beradi [1, 44–58-b.].

Z. Mamadalievaning “«Lison ut-tayr» obrazlari: ramz va majoz olami” monografiyasida esa doston obrazlarining semantik qatlamlari yanada kengroq yoritilgan. Tadqiqotchi Hudhud timsolini murshidlik, ruhiy kamolot va insonning ichki tarbiyasi bilan bog‘liq holda sharhlaydi. Uning talqinida obrazning vazifasi faqat qushlarni Simurg‘ sari yetaklashdan iborat emas, balki soliklarning ruhiy holatini anglash va ularni maqsad sari ruhlantirishni ham qamrab oladi. Simurg‘ obraziga doir tahlillarda esa ilohiy haqiqatni izlash va o‘zlikni anglash masalalari markazga chiqariladi. Shu tariqa tadqiqotchi dostonning tasavvufiy mazmunini obrazlarning o‘zaro munosabati orqali ochib beradi [2, 53–57-b.; 2, 71–80-b.].

E. E. Bertelsning “Navoiy va Attor” asari ikki dostonning poetik mustaqilligini belgilashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olim Navoiyning Attor ijodiga munosabatini oddiy tarjima yoki tayyor syujetni ko‘chirish hodisasi sifatida baholamaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, Navoiy o‘zidan oldingi adabiy an’anani saqlagan holda, voqealar rivoji, hikoyatlar tarkibi va falsafiy mushohadalarni o‘z badiiy tafakkuriga muvofiq qayta shakllantiradi. Bertels, xususan, Navoiyning hikoyatlarga munosabati, hayotiy tafsilotlarga e’tibori va fikrni izchil bayon etish usulini Attor poetikasidan farqlovchi jihatlar sifatida ko‘rsatadi. Ushbu kuzatishlar “Lison ut-tayr”ning mustaqil badiiy qiymatini asoslashda muhimdir [3, 33–43-b.; 3, 69–72-b.].

Sh. Sharipovning “Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonining genezisi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” asarida qushlar haqidagi tasavvufiy qissalarning tarixiy ildizlari hamda doston shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan manbalar masalasi yoritilgan. Muallifning izlanishlari mazkur an’ananing faqat Attor ijodi bilan chegaralanmasligini, undan oldingi Sharq falsafiy va adabiy tafakkurida ham qushlar orqali ruhiy safar g‘oyasi ifodalanganini anglashga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, “Lison ut-tayr” va “Mantiq ut-tayr” o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda manbalar davomiyligi bilan bir qatorda, Navoiyning mavjud badiiy tajribaga kiritgan yangiliklarini ham hisobga olish lozim [6, 45–96-b.].

N. Komilovning “Alisher Navoiy va tasavvuf” asari dostonning irfoniy mazmunini tushunishda muhim nazariy manbadir. Olim tasavvufiy adabiyotdagi pir va murid munosabatlari, ruhiy kamolot bosqichlari hamda Haqni anglash masalalarini yoritish orqali Navoiyning ramziy obrazlarini sharhlash uchun zarur tushunchaviy asos yaratadi. Bu yondashuvda Hudhudning murshidlik vazifasi, qushlarning solik sifatidagi mohiyati va yetti vodiy tushunchasi insonning ma’naviy takomillashuvi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Mazkur qarashlar dostonning tashqi syujeti ortida mujassam bo‘lgan falsafiy mazmunni aniqlashda ahamiyatlidir [8].

Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni J. Kamol tarjimasida o‘zbek kitobxoniga yetkazilgan bo‘lib, ushbu nashr ikki asarning syujet-kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi va badiiy ifoda xususiyatlarini bevosita qiyoslash uchun asosiy matniy manbalardan biri hisoblanadi. Asardagi qushlarning Simurg‘ni izlash yo‘lidagi safarlari, yetti vodiydan o‘tish jarayoni va yakuniy anglash holati Navoiyning talqini bilan qiyoslanganda, umumiy tasavvufiy modelning turlicha badiiy yechimlar orqali ifodalanganini ko‘rish mumkin. Bunda tarjima matnidagi ayrim istiloh va obraz nomlarining asl forsiy matndagi ma’nolari bilan munosabatini ham hisobga olish zarur [5].

A. Shimmelning “Mystical Dimensions of Islam” asari islom tasavvufining nazariy asoslari, ramziy tafakkuri va ruhiy tajriba ifodasini o‘rganishda muhim xorijiy manbalardan biridir. Olimning tasavvufiy tushunchalar va ramzlarning ma’no doirasiga oid qarashlari Sharq mumtoz adabiyotidagi obrazlarni kengroq ilmiy kontekstda tushunishga yordam beradi. Mazkur nazariy yondashuv “Lison ut-tayr” va “Mantiq ut-tayr” dostonlarida uchraydigan ruhiy safar, ilohiy haqiqatni izlash hamda insonning o‘zligini anglash motivlarini qiyosiy tahlil qilishda qo‘llanishi mumkin [10].

C. W. Ernstning “The Shambhala Guide to Sufism” asarida tasavvuf ta’limotining asosiy tushunchalari va tarixiy rivojlanishiga oid masalalar yoritiladi. Ushbu manba irfoniy adabiyotdagi ramziy ifodalarni diniy-falsafiy an’analar bilan bog‘liq holda tahlil qilish uchun qo‘shimcha nazariy imkoniyat yaratadi. Xususan, solikning ma’naviy tajribasi, ruhiy tarbiya va ilohiy haqiqatga intilish masalalarini sharhlashda bunday yondashuv muhimdir. Biroq mazkur asarning nazariy qarashlarini Navoiy va Attor matnlariga tatbiq etishda ularning tarixiy-adabiy sharoiti va o‘ziga xos poetik xususiyatlarini alohida hisobga olish lozim [11].

Sh. Sirojiddinovning “Alisher Navoiy tafakkuri va tasavvufi qarashlari” asari shoirning falsafiy mushohadalari hamda irfoniy qarashlarini o‘rganish uchun muhim ilmiy manba sifatida e’tiborga loyiq. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar Navoiyning tasavvufiy tushunchalarni badiiy ifodalash usuli, inson kamolotiga munosabati va mumtoz tafakkur an’analarini qayta talqin etish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu jihatlar “Lison ut-tayr”dagi ramziy obrazlarning faqat an’anaviy ma’nolarini emas, balki shoir dunyoqarashi bilan bog‘liq individual mazmunini ham ochishga yordam beradi [13].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy, germenevtik va matniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” hamda Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonlari syujet-kompozitsion tuzilishi, ramziy obrazlar tizimi, yetti vodiy konsepsiyasi va hikoyatlar mazmuni jihatidan qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, mustaqillik davrida amalga oshirilgan adabiyotshunoslik tadqiqotlari tahlil qilinib, ikki asar o‘rtasidagi mushtarakliklar va farqli jihatlar aniqlash hamda Navoiyning ijodiy individualligini asoslashga e’tibor qaratildi.

Natijalar

Mustaqillik yillarida Alisher Navoiy merosini xolis va ilmiy o‘rganish “Lison ut-tayr” dostoniga ham yangicha yondashuvni taqozo etdi. Sho‘rolar davri tadqiqotlarida dostondagi timsollar ko‘pincha bir yoqlama, o‘sha davr talabiga mos izohlangan, ularning tasavvufiy mazmuni yetarlicha ochilmagan edi [1, 8-b.] Z.Mamadalievaning ishlarida bu timsollar birinchi marta yaxlit tizim sifatida, kelib chiqish manbalari va Attor an’anasi bilan qiyosda tahlil qilindi. Shuningdek, E.E.Bertelsning “Navoiy va Attor” tadqiqoti o‘zbek tiliga tarjima qilinib, keng kitobxonga yetkazildi [3, 5-b.] (Bertelsning asl matni XX asr o‘rtalarida rus tilida chop etilgan; maqolada uning istiqlol davridagi o‘zbekcha nashriga tayaniladi.)

“Lison ut-tayr” Attorning “Mantiq ut-tayr”iga javob tarzida yozilgan, ammo “qushlar qissasi” an’anasi undan ancha oldin shakllangan. Sh.Sharipov dostonning genezisi Ibn Sinoning “Tayr qissasi”ga borib taqalishini isbotlagan; unda qushlarga nom berilmagan va ularning rahnamosi yo‘q. G‘azzoliyning “Risolat ut-tayr”ida qushlar shohi Anqo deb ataladi, biroq yo‘lboshchi obraz yana uchramaydi. Hudhudni asarning markaziy qahramoniga aylantirgan, Simurg‘ni esa Haqning tasavvufiy timsoli darajasiga ko‘targan shoir – Attor [1, 45-b.]. Demak, Navoiy bo‘sh joyga emas, Attor tomonidan to‘liq shakllantirilgan badiiy tizimga murojaat qilgan.

Bertels bu borada aniq xulosa beradi: Navoiy dostonini tarjima deyish mumkin emas, unda tarjimon emas, shoir shaxsi birinchi o‘ringa chiqadi, “Lison ut-tayr” esa “Attor dostoni haqidagi doston”dir. Navoiyning o‘zi ham mazkur tarhni Attor asrorining sharhi deb ataydi, lekin Bertels uning Attor matniga katta erkinlik bilan yondashganini ko‘rsatadi [3, 72-b.].

Ikkala dostonda Hudhud Qur’onning “Naml” surasi (20–27-oyatlar)dagi Sulaymon payg‘ambarning elchisi, zehnli qush sifatida talqin etiladi. N.Komilov fikricha, Hudhud – pir timsoli, o‘ttiz qush – solik muridlar, Attor va Navoiy tasvirlagan yetti vodiy esa solik ruhining Ilohga vosil bo‘lish bosqichlaridir [1, 44-b.]. Sho‘rolar davri adabiyotshunosligidagi “Hudhud Navoiy zamondosh shayxlarining allegorik obrazi, shoir ularni tanqid qilgan” degan qarashni Z.Mamadalieva asosli ravishda inkor etadi: Navoiy obrazni salaflar an’anasidan chekinmay, yangi ifodalar bilan talqin qilgan [1, 58-b].

Tadqiqotchi ikki shoir talqinidagi umumiy jihatlarni to‘rtta deb ko‘rsatadi: Hudhud Sulaymonning hamsuhbati va elchisi; donishmand va zakiy; asarning markaziy qahramoni va yo‘lboshchisi; har bir solik qush bilan Simurg‘ o‘rtasidagi bog‘lovchi rishta [2, 53-b.]. Farqlar esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

(a) Attor dostonni qushlarga xitob bilan boshlaydi, Navoiyda esa Hudhud qushlar shohsizlikdan o‘rin talashib kelishmagan sahnada paydo bo‘ladi; (b) Attorda yo‘lboshchi qur’a bilan belgilanadi (bu ramziy ahamiyatga ega), Navoiyda yo‘lboshchi bo‘lishini qushlarning o‘zlari iltimos qiladi; (v) Navoiyning Hudhudi kamtarin, qushlarning injiqligiga sipolik bilan javob beradi, Attordagidek qattiq gapirmaydi; (g) Attorda Simurg‘ ta’rifi so‘ralmasdan beriladi, Navoiyda qushlar savolidan keyin keladi va bob sarlavhasiga ham chiqariladi; (d) Attor dostonida voqealar yetti vodiyga kelganda Hudhudning vazifasi tugaydi, Navoiyning Hudhudi esa fano vodiysida noumid bo‘lgan qushlarni ham qo‘llaydi [2, 55-b.]. Shuningdek, qushlarni ta’riflash vazifasi Navoiyda Hudhudga yuklangan. Fano vodiysidagi irshodidan keyin Navoiy uni shunday baholaydi:

Ham alarda bor edi mardonaliq,
Hodii komilda ham farzonaliq.

Z.Mamadalieva bundan Hudhudning qushlarga munosabati ijobiy tomonga o‘zgartirilgani, unga kamtarlik va xoksorlik kabi komil inson sifatlari kiritilgani haqida xulosa chiqaradi [4, 167-b]. U Hudhudni “o‘z-o‘zini tarbiyalayotgan nafsi lavvoma” yoki Robbisini tanigan ruh timsoli sifatida ham izohlash mumkinligini qayd etadi [2, 57-b.].

Simurg‘ obrazi Avestodagi Varag‘n va Saena qushi, xalq ertaklaridagi Davlat qushi, “Shohnoma”dagi Simurg‘ va Suhravardiy risolalaridagi ramziy talqinlar orqali Attorga yetib kelgan. Attorda u uch ma’noda keladi: qushlar shohi, ilohiy ideal (Yaratguvchi) va “si murg‘” – o‘ttiz qush [2, 72-b.]. Navoiy bu uch ma’noni saqlab, kuchaytirgan, Z.Mamadaliyevaning xulosasiga ko‘ra, to‘rtinchisini – Simurg‘ komil inson ramzi degan talqinni – kashf etgan.

Asosiy farq maqsadga yetish tabiatiga oid. Attorda qushlar Simurg‘ning soyasi, ularning dunyodagi hayoti hijron va ayriliqda; ilohiy O‘zlik o‘zdan yuksakda bo‘lib, unga riyozat bilan yetilishi lozim. Navoiy esa insonning yaratilishini hijron emas, Yaratguvchi hikmati deb baholaydi va “Men maxfiy xazina edim, oshkor bo‘lishni xohladim” mazmunidagi qudsiy hadisga tayanadi:

Ganje erdi, lek maxfiy zot anga,
Yoshurin husn erdi, kun – miroat anga.

Dostonning yakunida esa ilohiy O‘zlik tashqarida emas, solik ichida kashf etiladi: o‘ttiz qush fano maqomidan baqo maqomiga o‘tganda o‘zlarining Simurg‘ ekanini anglaydi [2, 71-b.]. Bu – Navoiy talqinining eng muhim yangiligi.

Bertels bu borada boshqa jihatni ta’kidlaydi: Navoiyda Simurg‘ tavsifi mistik bo‘yoqdan deyarli xoli, umumiy so‘zlar bilan beriladi (“zoti bitta, sifatlari ko‘p”), biroq shoir qushlarni sirli shoh haqida ikki marta so‘rashga majbur qiladi, hadis va falsafiy atamalar bilan izoh beradi, umuman, uning dostoni Attorinikidan ratsionalroq va didaktikroq [3, 70-b.]. Z.Mamadalieva ham Navoiyda mulohaza va tasvir uyg‘unligi kuchliroq ekanini Bertelsga tayanib ta’kidlaydi. Demak, ikkala tadqiqot Navoiyning aqliy-falsafiy izohga moyilligini birdek tan oladi; farq – Z.Mamadalieva buni tasavvufiy ma’no chuqurlashuvi, Bertels esa Attor ehtirosining jilovlanishi sifatida baholashida.

Ibn Sinoda qushlar – inson ruhlari, G‘azzoliy va tasavvuf adabiyotida – Tangrini izlayotgan soliklarning ko‘ngillari; aynan shu talqin Attor va Navoiy dostonlarida vodiylar oshuvchi solik qushlar timsoliga aylangan. Navoiy lirikasidagi jon qushi, ko‘ngil qushi, maloyik qushlari timsollari dostonda ham faol qo‘llanadi. Masalan, Attorning fano vodiysidagi xabarchi qushi Komilov–Mahmudov tarjimasida “izzati chovushi”, J.Kamol tarjimasida “shotir” deb berilgan bo‘lsa, Navoiy uni “izzat chovushi” nomi bilan tasvirlaydi va farishta ramzi sifatida ishlatadi [2, 80-b.]. Bertelsning qaydicha, Navoiy qushlarni sanash tartibini o‘zgartirgan va ro‘yxatida Attorda yo‘q qushlar ham bor; kiritma hikoyatlarning faqat juda kichik qismi Attordagilarga mos keladi, aksariyati Navoiyning o‘z ijodi yoki hayotiy kuzatuvlaridir [3, 33-b.]. Dissertant ta’kidlashicha, afsonaviy (Simurg‘, Anqo, Humo, Qaqnus) va real qushlar turli manbalardan olingan bo‘lsa-da, dostonda yagona g‘oya – tavhidga xizmat qildirilgan: Shayx San’on hikoyasidan so‘ng ularni muallif “bir qush” deb ataydi [2, 168-b.].

Muhokama

Jon qushi va ko‘ngil qushi timsollari Navoiy lirikasida ham, dostonda ham ma’nodosh, biroq nozik farq bilan ishlatiladi. Mamadalievaning kuzatishicha, jon qushi Yor jamolini – Tangri didorini qo‘msab, tanadan chiqib uchishga intiladi; ko‘ngil qushi esa vujud ichida shavq va zavqini izhor etadi, hijronda qiynaladi, visolda shodlanadi. Dostonning ilk baytidagi “jon qushi” esa ishq asrorini bayon etishga shaylangan orif oshiqdir [2, 78]. Bu esa Navoiy lirikasi va dostonini yagona badiiy olam sifatida o‘rganish imkonini beradi. Dostonlardagi hikoyatlar va dunyoqarash farqiga keladigan bo‘lsak, eng yaqin o‘rin – Shayx San’on qissasi. Bertelsga ko‘ra, Attorda u markaziy o‘rinni egallaydi; Navoiy bu yerda asliyatga eng yaqin keladi, Attorni deyarli satrma-satr kuzatadi, lekin bu ham tor ma’nodagi tarjima emas – shoir ko‘plab yangi tafsilotlar qo‘shadi [3, 43]. Umuman, Navoiy Attorning asosiy yo‘nalishlarini saqlab, materialni izchilroq joylashtiradi, yangi mavzular kiritadi; natijada hikoya mavhum, zamon va makondan holi xarakterini yo‘qotib, moddiy, realistik va insonparvar tus oladi [3, 69].

Hikoyatlardagi timsollar tizimida ham Attor an'anasi ijodiy rivojlantirilgan. Shoh va gado – ma'shuq va oshiq timsollarini yaratishda Navoiy Attorning "Mantiq ut-tayr" va "Ilohiynoma"sidagi hikoyatlardan ta'sirlangan, ammo shohlarning nafaqat go'zal, balki axloqan komil inson sifatidagi tasviri kabi yangi mulohazalar kiritgan. Mirot (ko'zgu) timsolida u inson ko'ngli – Tangri ko'zgusi, unga sayqal berish esa har kishining o'z qo'lidadir, degan g'oyani ilgari suradi; sham' va parvona timsolida parvonaning shamga erishishini fano deb baholaydi; darvesh timsoliga esa ikki xil – haqiqiy va soxta darvesh sifatida yondashib, ularga avvalo realist shoir sifatida baho beradi.

Dunyoqarash farqi ham muhim. Bertels fikricha, Attor "borliq va fano makoni"ga o'ta nafrat bilan qaraydi, Navoiy esa hayotni xotirjam kuzatuvchi, mulohazali shoir: g'avvos, hind savdogari, bog'bon haqidagi hikoyatlarda hayot lavhalari Navoiyni qiziqtiradi [3, 72]. Navoiyning tasavvufga munosabati borasida Bertels uni tasavvuf ma'naviy asosini qabul qilgan, ammo amaliyotchi sufiy bo'lmagan, Attorning keskin xulosalarini yumshatishga intilgan shoir deb baholaydi. Mamadaliyeva esa timsollar tahlili orqali Naqshbandiya ta'limoti ta'sirini ko'rsatadi: fil, ko'rlar va filbon hikoyasida Navoiy filni mutlaq haqiqat, ko'rlarni turli tariqat vakillari, filbonni esa Naqshbandiya pir-i komili sifatida talqin qiladi; it timsoli esa Bahouddin Naqshbandning munosabati ta'sirida rivojlangan [2, 160]. Bu ikki qarash bir-birini inkor etmaydi: biri shoir shaxsiyatiga, ikkinchisi timsollarning tasavvufiy mazmuniga tayanadi.

Tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz bir qancha munozarali o'rinlarga ham duch kelamiz. Xususan, Hudhud talqinlari bir xil emas: istiqlol davri adabiyotshunosligida uni payg'ambar yoki islom dini timsoli sifatida izohlash ham kuzatilgan (U. Qobilov), N. Komilov uni pir timsoli deb biladi, Mamadalieva esa germenevtik yondashuvda obrazni ko'p ma'noli – pir, komil inson, nafs yoki ruh – deb qaraydi. Germenevtikada timsolga berilgan talqinlar xilma-xil, hatto bir-biriga zid bo'lishi mumkin va bu badiiy haqiqatni ochishga to'sqinlik qilmaydi. Shu bois yuqoridagi xulosalarni yakuniy hukm emas, manbalarga asoslangan ilmiy talqinlar sifatida qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

Xulosa

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari bilan g'oyaviy va kompozitsion jihatdan mushtarak bo'lsa-da, badiiy talqin, obrazlar mazmuni va falsafiy qarashlarning ifodalanishi bilan undan farqlanadi. Navoiy Attor yaratgan an'anaviy syujet modelini saqlab qolgan holda, hikoyatlar tarkibi, voqealar rivoji va ramziy timsollar mazmunini o'z dunyoqarashi asosida qayta ishlab, mustaqil badiiy asar yaratgan. E. E. Bertels va Z. Mamadalieva tadqiqotlarida ham ta'kidlanganidek, mazkur munosabatni oddiy tarjima doirasida baholash Navoiyning ijodiy individualligini to'liq ochib bermaydi.

Ikki doston o'rtasidagi muhim farqlardan biri Hudhud obrazining talqinida namoyon bo'ladi. Attorda qushlarning yo'lboshchisi sifatida gavdalangan ushbu obraz Navoiy ijodida kamtarlik, xoksorlik va murshidlik fazilatlari bilan boyitilgan. Navoiyning Hudhudi qushlarning iltimosi bilan ularga rahnamolik qiladi va fano vodiysida ham ruhiy madad beruvchi yo'lboshchi sifatidagi vazifasini davom ettiradi. Bu xususiyatlar shoirning komil inson va ma'naviy yetakchi haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'liqdir.

Simurg' obrazining talqinida ham Navoiyning ijodiy yondashuvi yaqqol ko'rinadi. Shoir an'anaviy tasavvufiy ma'nolarni rivojlantirib, Simurg' timsolini komil inson va o'zlikni anglash g'oyalari bilan bog'laydi. Doston yakunida o'ttiz qushning Simurg'ni o'zlarida anglab yetishi insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi eng muhim haqiqatlardan birini ifodalaydi. Bunda ilohiy haqiqatni izlash tashqi safar bilangina cheklanmay, insonning botiniy olamini anglash jarayoni sifatida ham namoyon bo'ladi.

Yetti vodiy konsepsiyasi va hikoyatlar tizimi qiyosiy tahlilning yana bir muhim yo'nalishini tashkil etadi. Navoiy vodiylar tasvirida, ayniqsa, hayrat, fano va baqo bosqichlarining mazmunini o'ziga xos tarzda yoritadi. Hikoyatlar tarkibida esa Attor an'anasidan ijodiy foydalanish bilan birga, yangi voqealar va hayotiy kuzatishlarga asoslangan lavhalarni kiritadi. Bertelsning kuzatishlari hamda Mamadalievaning obrazlar tahlili Navoiyning mavjud adabiy tajribani qayta talqin etish orqali dostonning falsafiy va badiiy imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi. Demak, "Lison ut-tayr"ning o'ziga xosligi an'anani saqlash va uni yangi ma'no qatlamlari bilan boyitish tamoyillarining uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamadaliyeva Z. U. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi : filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent : O'zMU, 2010.
2. Mamadaliyeva Z. "Lison ut-tayr" obrazlari : ramz va majoz olami. – Toshkent : Qaqnus Media, 2019.
3. Bertels E. E. Navoiy va Attor / rus tilidan I. Mirzaev tarjimasi. – Toshkent : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
4. Navoiy A. Lison ut-tayr // Mukammal asarlar to'plami : 20 jildlik. – Toshkent : Fan, 1996. – 12-jild.
5. Attor F. Mantiq ut-tayr / forschadan J. Kamol tarjimasi. – Toshkent : Fan, 2006.
6. Sharipov Sh. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent : Fan, 1982. – 96 b.
7. Sharipov Sh. "Lison ut-tayr" haqiqati. – Toshkent : Ma'naviyat, 1998.
8. Komilov N. Alisher Navoiy va tasavvuf. – Toshkent : Fan, 1994.
9. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent : Movarounnahr, 2009.
10. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill : University of North Carolina Press, 1975. – 506 p.
11. Ernst C. W. The Shambhala Guide to Sufism. – Boston : Shambhala, 1997. – 264 p.
12. Attar F. The Conference of the Birds / translated by Afkham Darbandi and Dick Davis. – London : Penguin Books, 1984. – 240 p.
13. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy tafakkuri va tasavvufi qarashlari. – Toshkent : Fan, 2006.